

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.09.2019 yildagi 797-son

Кучга кириш санаси

24.09.2019

Қўшимча ахборот

Улашиш

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

OLIJ TA'LIM MUASSASALARI RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARINING MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 2019-yil 27-avgustdagi PF-5789-son **Farmoni** ijrosini ta'minlash hamda oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilimi, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning bevosita hamda kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi, tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar:

2019-yilning 1-oktabridan oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimi amaliyotga joriy etilishini;

ikki oy muddatda oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida professor-o'qituvchilarning belgilangan sonidan kelib chiqib, kamida 3 ta shtat birligidan iborat Ta'lim texnologiyalari kafedrasini tashkil etilishini;

ikki oy muddatda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy va tarmoq markazlari (keyingi o'rinlarda mintaqaviy va tarmoq markazlari deb ataladi) tuzilmasiga xalqaro hamkorlik bo'yicha mutaxassis lavozimi kiritilishini.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

(1-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrda PQ-420-sonli [qaroriga](#) asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.12.2024-y., 07/24/420/1009-son)

2. Quyidagilar:

Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibi to'g'risida nizom [1-ilovaga](#) muvofiq;

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy va tarmoq markazlarining namunaviy tuzilmalari tegishli [2](#) va [2a-ilovalarga](#) muvofiq;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

(2-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrda PQ-420-sonli [qaroriga](#) asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.12.2024-y., 07/24/420/1009-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida samarali dars berayotgan professor-o'qituvchilar, tajribali amaliyotchi mutaxassislarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida nizom [4-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

(2-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda tizimida pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar 2019-yil 1-oktabrdan boshlab:

rahbar va pedagog kadrlarning o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyati natijalarini inobatga oladigan, ularga muntazam ravishda kasbiy o'zini o'zi rivojlantirib borish imkoniyatini beruvchi uzluksiz malaka oshirish tizimini amaliyotga joriy etish bo'yicha tashkiliy-metodik tayyorgarlikni amalga oshirish;

o'quv rejalari va dasturlari mazmunini takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda pedagog kadrlar malakasini oshirishning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish;

mintaqaviy va tarmoq markazlari tinglovchilarining xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasidan keng foydalanishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish;

mintaqaviy va tarmoq markazlarini xorijiy nashrlar, zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan muntazam ta'minlab borish, shuningdek, kurslarning o'quv-uslubiy ta'minotini doimiy yangilab borish chora-tadbirlarini ishlab chiqsin va amalga oshirsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga [5-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari A.A. Abduxakimov hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2019-yil 23-sentabr,
797-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-
sentabrdagi 797-son qaroriga
1-ILOVA

Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatiga qo'yiladigan talablar asosida quyidagilarga yo'naltirilgan:

oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy mahoratini muntazam oshirish asosida ularning ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot hamda o'qitilayotgan fanlar bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari sohalaridagi ko'nikmalarini rivojlantirish;

yuqori samarali zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarini doimiy yangilab borish, oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining faoliyatini zarur darajada tashkil etish va samaradorligini ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarida butun jahon Internet axborot tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda, ilg'or pedagogika,

axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni egallash, ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirish;

oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining chet tilini amaliy o'zlashtirish darajasini oshirish va undan o'z kasbiy mahoratini, pedagogik va ilmiy faoliyatini muttasil oshirib borish uchun keng foydalanish;

malaka oshirishning bilvosita shakllarini amaliyotga to'liq joriy etish, pedagog kadrlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyati natijalarini inobatga oladigan, tabaqalashtirilgan uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini rivojlantirish asosida malaka oshirishning muqobil shakllarini joriy etish.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

masofaviy malaka oshirish — ishlab chiqarishdan ajralmagan holdagi masofadan o'qitish ta'lim usullari orqali malaka oshirishning onlayn (videoma'ruzalar, maslahatlar, nazorat turlarini masofadan turib real vaqt rejimida o'tkazish) va offlayn (masofaviy ta'lim tizimidagi tegishli o'quv-metodik resurslarni mustaqil ravishda o'zlashtirish) shakli;

Oldingi tahrirga qarang.

mustaqil malaka oshirish — ta'lim darajasi va sifatiga qo'yiladigan Davlat ta'lim talablariga muvofiq yangi bilimlar, malaka va ko'nikmalarni rahbar va pedagog kadrlar tomonidan mustaqil o'zlashtirish, o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirish shakli;

(3-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.06.2021-y., 09/21/345/0522-son)

muqobil malaka oshirish — mustaqil malaka oshirish shakllaridan foydalanib, rahbar va pedagog kadrlarning individual kasbiy mahorat natijalari tasdig'ini amaldagi bevosita malaka oshirish shakllariga tenglashtirilgan shakli;

oliy ta'lim muassasalarining pedagog kadrlari — oliy ta'lim muassasasida pedagogik faoliyatni amalga oshiruvchi va kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi (assistent) lavozimidagi shaxslar;

oliy ta'lim muassasalarining rahbar kadrlari — oliy ta'lim muassasasi rektoratida va dekanatida boshqaruv funksiyalari va vazifalarini bajaruvchi shaxslar;

oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursi (qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi) — yangi kasbiy bilim va mahorat, zamonaviy ko'nikmalar hamda boshqaruv va pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur hajmda va yetarli darajada hamda davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv-ta'lim jarayoniga talab qilinadigan sifatni ta'minlaydigan darajada vakolatlarni nazarda tutadigan oliy ta'limdan keyingi o'qitish shakli;

uzluksiz malaka oshirish tizimi — rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish, muntazam ravishda rivojlantirib borish imkoniyatini beruvchi ko'p bosqichli tizim;

elektron portfolio — rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy faoliyat natijalarini baholashga qaratilgan o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot va ijodiy ish materiallarni qamrab oluvchi elektron resurslar majmuasi.

4. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish bevosita va bilvosita shakllarning o'zaro bir-birini to'ldirish tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

5. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malaka oshirish tizimi [1-ilovadagi](#) sxemaga muvofiq, Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malaka oshirish shakllarini baholash mezonlari [2-ilovaga](#) muvofiq, Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish bosqichlari [3-ilovaga](#) muvofiq joriy etiladi.

2-bob. Uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etishning maqsad va vazifalari

6. Malaka oshirishning bevosita va bilvosita shakllarini o'zaro bir-birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etish orqali rahbar va pedagog kadrlarning mustaqil o'zini o'zi shaxsiy va kasbiy rivojlantirish motivlarini rag'batlantirish, shuningdek o'quv-tarbiya jarayonini yuqori ilmiy-uslubiy darajada ta'minlash, malakaviy talablar, o'quv rejalari va dasturlari asosida kasbiy va pedagogik mahoratni doimiy ravishda rivojlantirishga ko'maklashish uchun zarur bo'lgan kasbiy

bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlarni muntazam ravishda yangilab borish uzluksiz malaka oshirish jarayonlarining maqsadi hisoblanadi.

7. Quyidagilar uzluksiz malaka oshirish jarayonlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va mahoratlarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish;

malaka oshirishning to'g'ridan-to'g'ri va kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini amaliyotga to'liq joriy etilishini ta'minlash va monitoringini olib borish;

rahbar va pedagog kadrlarning ilmiy-pedagogik salohiyatidan kelib chiqib ularni kasbiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz malaka oshirishning shakllarini mustaqil tanlash va o'zlashtirish;

ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash orqali rahbar va pedagog kadrlarning tayyorgarligi sifatiga qo'yiladigan malakaviy talablarni takomillashtirish.

3-bob. Uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish shakllari va bosqichlari

8. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

mutaxassislik bo'yicha mustaqil malaka oshirish;

muqobil malaka oshirish;

ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida bevosita o'qish.

Oldingi tahrirga qarang.

9. Mutaxassislik bo'yicha mustaqil malaka oshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

ochiq o'quv mashg'ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish;

iqtidorli va iste'dodli talabalar bilan ishlash;

ilmiy konferensiyalarda ma'ruza bilan qatnashish;

ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish;

ko'rgazma va tanlovlarda ishtirok etish;

ilmiy loyihalarda ishtirok etish;

xalqaro (impakt-faktorli) nashrlarda maqolalar e'lon qilish;

ixtiro (patent), ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalarga mualliflik qilish;

monografiya, mualliflik ijodiy ishlar katalogini tayyorlash va nashr qilish;

o'quv adabiyotlari (darslik, o'quv qo'llanma, metodik qo'llanma)ni tayyorlash va nashr qilish;

fan doktori (DSc) yoki falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun himoya qilingan dissertatsiyaga ilmiy rahbarlik qilish;

xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish yoki stajirovka o'tash.

Ochiq o'quv mashg'ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish — zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'limning interaktiv metodlarini qo'llagan holda, akademik guruhlarda jadval bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish va belgilangan tartibda keng muhokama qilish.

Iqtidorli va iste'dodli talabalar bilan ishlash — dars berayotgan fanlari bo'yicha talabalarning respublika va xalqaro miqyosidagi fan olimpiadalari, sport musobaqalari, san'at sohasidagi ko'rik tanlovlar hamda ko'rgazmalarining sovrindorlarini tayyorlash hamda iqtidorli va iste'dodli talabalar bilan ishlashda faollik ko'rsatish.

Ilmiy konferensiyalarda ma'ruza bilan qatnashish — fan va amaliyot, o'qitish metodikasi hamda texnologiyasining dolzarb muammolarini hal etishga va o'quv-tarbiya jarayonining yuqori sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan dolzarb mavzulari, innovatsion yo'nalishlari bo'yicha respublika va xalqaro miqyosdagi anjumanlar, davra suhbatlari, seminarlarda ilmiy yoki ilmiy-metodik ma'ruzalar (axborotlar) qilish.

Ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish — mustaqil ravishda ta'lim, fan va ishlab chiqarishning dolzarb masalalariga yo'naltirilgan (mutaxassisligi doirasida) muhim mavzular bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot (empirik) natijalari, tahlillari, ratsionalizatorlik g'oyalari va ishlanmalarini dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etiladigan ilmiy nashrlar, shu jumladan, elektron ilmiy-texnik jurnallarda e'lon qilish.

Ko'rgazma va tanlovlarda ishtirok etish — mashg'ulot olib borayotgan fanlari bo'yicha ijodiy ish natijalarini respublika hamda xalqaro miqyosdagi ko'rik-tanlovlar va ko'rgazmalarda ishtirok etish orqali ommalashtirish, sovrindor bo'lish.

Ilmiy loyihalarda ishtirok etish — xalqaro loyihalar va dasturlar, shuningdek, fan hamda texnologik taraqqiyotning bugungi darajasi bilan kadrlar tayyorlash ta'lim mazmuni, sifatini oshirish orasidagi uzviylikni rivojlantirish maqsadida fundamental, innovatsion va amaliy loyihalarga, xo'jalik shartnomalari asosida bajariladigan ishlarga, shuningdek, xalqaro miqyosdagi loyihalarga rahbarlik qilish yoki ishtirokchi sifatida faoliyat yuritish.

Xalqaro (impakt-faktorli) nashrlarda maqolalar e'lon qilish — mustaqil ravishda ta'lim, fan va ishlab chiqarishning dolzarb masalalariga yo'naltirilgan muhim mavzular bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalari, tahlillari, ratsionalizatorlik va innovatsion g'oyalarini xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan yuqori reytingli yoki impakt-faktorli ilmiy jurnallarda e'lon qilish.

Ixtiro (patent), ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalarga mualliflik qilish — sohaning dolzarb masalalariga yo'naltirilgan tadqiqot natijalari asosida mahsulot va ishlanmalarni yaratish.

Monografiya, mualliflik ijodiy ishlar katalogini tayyorlash va nashr qilish — aynan ilmiy-tadqiqot mavzusi natijalari yoki mualliflik ijodiy ishlari asosida tayyorlangan asar (katalog)ni nashr etish.

O'quv adabiyotlarini tayyorlash — davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablar asosida tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha xorijiy tajribalar asosida yangi avlod o'quv (elektron) adabiyotlari (darslik, o'quv qo'llanmasi, metodik qo'llanma)ni yaratish va belgilangan tartibda ta'lim amaliyotiga joriy etish.

Ilmiy rahbarligida fan doktori (DSc) yoki falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilinganligi — ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashdagi faolligi, rahbarligida fan doktori (DSc) yoki falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun tayyorlangan va himoya qilingan dissertatsiya.

Xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish — ishdan ajralgan holda, to'g'ridan-to'g'ri shaklda xorijiy mamlakatlarda kasbiy va pedagogik mahoratini oshirish, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori ilmiy-metodik darajada amalga oshirish, axborot texnologiyalari va o'qitishning interaktiv metodlari bo'yicha kasbiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni oshirish.

Xorijiy mamlakatlarda stajirovka o'tash — malaka oshirish shakllaridan biri bo'lib, ishdan ajralgan holda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy mamlakatlarda ish tajribasi, amaliy ko'nikmalari va kasbiy bilim darajasiga ega bo'lish maqsadida ma'lum vaqt davomida bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirish.

(9-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

Oldingi tahrirga qarang.

10. Muqobil malaka oshirish shakllari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

O'zbekiston Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi ilmiy unvoniga ega bo'lish;

so'nggi 3 yilda xorijiy mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri shaklda umumiy davomiyligi 4 hafta yoki 144 soatdan kam bo'lmagan malaka oshirish yoki stajirovka o'tash;

so'nggi 3 yilda falsafa doktori (PhD) yoki mutaxassislik bo'yicha fan doktori (DSc) darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilish.

(10-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

11. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malaka oshirish shakllari bo'yicha so'nggi uch yildagi ma'lumotlari elektron portfolio tizimiga shaxsan rahbar va pedagogning o'zi tomonidan kiritiladi va ko'rsatkichlar elektron monitoring tizimi orqali qayd etib boriladi.

Mustaqil malaka oshirish shakllari bo'yicha rahbar va pedagog kadrlarning faoliyatini baholash mazkur Nizomning [2-ilovasidagi](#) Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining mustaqil malaka oshirish shakllarini baholash mezonlariga muvofiq amalga oshiriladi.

12. Oliy ta'lim muassasalarining har bir rahbar va pedagog kadri mustaqil malaka oshirish shakllariga ajratilgan 100 ballik tizimda kamida 20 ballni to'plagan holda quyidagi ikkita bosqichdan birini egallaydi:

birinchi bosqich (20 — 85 ball) — rahbar va pedagog kadrlar ta'lim dasturlari asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan oliy ta'lim muassasasining yillik malaka oshirish rejasi doirasida rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida ta'lim dasturlari asosida bevosita o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi. 20 balldan kam ball to'plagan rahbar va pedagog kadrlar mustaqil malaka oshirish kurslaridan o'tmagan hisoblanadilar va keyingi bosqichga qo'yilmaydilar;

ikkinchi bosqich (86 — 100 ball) — rahbar va pedagog kadrlar to'g'ridan-to'g'ri onlayn test sinovlarini topshirishga tavsiya etiladi. Onlayn test sinovlarini muvaffaqiyatli topshirgan rahbar va pedagog kadrlarga bitiruv (loyiha) ishini himoya qilishga ruxsat beriladi. Onlayn test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tmagan rahbar va pedagog kadrlar rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida ta'lim dasturlari asosida bevosita o'qishga tavsiya etiladi.

13. Nazorat turlari bo'yicha sinovlardan belgilangan o'tish balini to'play olmagan pedagog kadrlar belgilangan tartibda takroriy kurslardan o'tadi.

Oldingi tahrirga qarang.

14. Muqobil malaka oshirish shakllaridan ixtiyoriy birini amalga oshirgan rahbar va pedagog kadrlarga to'g'ridan-to'g'ri malaka attestati Attestatsiya komissiyasining qarori asosida taqdim etiladi.

(14-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

4-bob. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o'tish tartibi

15. Davlat oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari, idoraviy mansubligidan qat'iy nazar, uch yilda kamida bir marta doimiy asosda qayta tayyorlash va malaka oshirishning tegishli yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlanishi va malakasini oshirishi shart.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tegishli yo'nalishlar bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarini hisobga olgan holda tinglovchilarni sifatli o'qitish uchun moddiy-texnika bazasi, pedagoglar tarkibi mavjud bo'lganda kurslar faoliyatini va resurs ta'minotini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va budjetdan tashqari moliyalashtirish asosida tashkil etiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilari (takroriy o'qitishdan tashqari) bepul asosda o'qitiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

16. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi o'quv rejasining namunaviy tuzilmasi asosida ishlab chiqilgan 288 soat hajmdagi o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi.

(16-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

Bunda, o'quv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish usullari asosida, 144 soati to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladi.

Malaka oshirishning bevosita shaklida bir haftadagi o'quv yuklamosining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi.

Oldingi tahrirga qarang.

17. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilari o'qishni tugatgandan keyin tarkibi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan komissiyada attestatsiyadan o'tadilar. Attestatsiya komissiyasi tegishli sohalardagi yetakchi olimlar va mutaxassislar, ilmiy kengash a'zolari, o'quv-uslubiy ishlar sohasidagi tajribali mutaxassislardan kamida 7 kishidan iborat bo'lgan oliy ta'lim muassasasi rektori yoki fan doktori ilmiy unvoni berish bo'yicha ilmiy kengash raisi boshchiligida shakllantiriladi.

(17-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

18. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilariga qat'iy hisobda turadigan davlat namunasidagi hujjat hisoblanadigan malaka attestati beriladi.

19. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish yakunlari bo'yicha attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlari tegishli yo'nalishlar bo'yicha bo'sh turgan rahbar va pedagog lavozimini tanlov bo'yicha egallashda imtiyozli huquqqa ega bo'ladi.

20. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish yakunlari bo'yicha attestatsiyadan o'tmagan oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari bir yil mobaynida pulli asosda o'qishning tegishli yoki turdosh yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha keyingi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yakunida attestatsiyadan o'tishi shart.

Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini takroran o'zlashtirishi asosiy ishdan ajralmagan holda kurslarning o'quv dasturlarini mustaqil ravishda masofadan o'qitish usullari orqali o'zlashtirish asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ravishda masofadan o'qitish usullari orqali qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o'quv dasturlarini to'liq o'zlashtirib kelgan tinglovchilar yakuniy attestatsiyaga kiritiladi. Yakuniy attestatsiya tegishli yo'nalishlar bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari huzuridagi attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

21. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida uzrsiz sabablarga ko'ra dars qoldirgani uchun tinglovchilar safidan chiqarilgan oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari pulli asosda, mazkur Nizomning 16-bandi talablariga muvofiq qayta tayyorlash va malaka oshirish kursidan takroran o'tishi hamda o'qishning tegishli yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha keyingi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursida attestatsiyadan o'tishi shart.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida uzrli sabablar bilan dars qoldirgan tinglovchiga o'qishning tegishli yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha keyingi kurslarda qayta tayyorlash va malaka oshirishdan o'tishiga ruxsat beriladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan takroran o'tish 288 soat hajmida tashkil etilib, uning 144 soati mustaqil malaka oshirish shaklida, 144 soati masofadan o'qitish shaklida amalga oshiriladi.

22. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish yakunlari bo'yicha attestatsiyadan takroran o'tmagan yoki asosiy ish joyi bo'yicha belgilangan muddatda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan takroran o'tmagan taqdirda, ushbu xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddatidan hamda bo'sh turgan pedagog lavozimini egallash tanlovi davrining tugagan muddatidan qat'iy nazar, mehnat shartnomasi belgilangan tartibda ikki oy mobaynida bekor qilinadi. Ular o'z pedagogik faoliyatini boshqa ta'lim muassasalarida (oliy ta'lim muassasalaridan tashqari) davom ettirishi yoxud boshqa tashkilotlarda ishlashi hamda o'zining kasbiy malakasini mustaqil ravishda oshirishi mumkin.

Bunda oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlariga qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o'tishga hamda ular bilan asosiy ish joyi bo'yicha mehnat shartnomasi bekor qilingan kundan bir yil o'tgandan keyin pulli asosda attestatsiyadan o'tishga ruxsat beriladi. Buning uchun ular tegishli qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasiga kurslardan va attestatsiyadan o'tish to'g'risida ariza bilan murojaat qiladilar.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan, shuningdek attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan pedagog kadrlar oliy ta'lim muassasalaridagi bo'sh turgan pedagog lavozimlarini egallash uchun tanlovda belgilangan tartibda ishtirok etish huquqiga ega.

23. Oliy ta'lim muassasalarining rahbar kadrlari attestatsiyadan takroran o'tmagan taqdirda, muayyan rahbarlik lavozimiga tayinlashga vakolatli boshqaruv organi (yoki oliy ta'lim muassasasi rahbari) bundan keyin ushbu shaxslarning rahbarlik lavozimini egallab turishi to'g'risida qaror qabul qiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

24. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o'quv jarayonlarini monitoring qilish, shuningdek tinglovchilarning kasbiy faoliyati natijalarini qayd etib borish O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining (keyingi o'rinlarda — Institut) yagona elektron tizimi orqali amalga oshiriladi.

(24-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

Oldingi tahrirga qarang.

25. Har yili 15-noyabrga qadar tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirliklar va idoralar buyurtmanomalari asosida hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o'tish davriyligiga muvofiq keyingi kalendar yil uchun oylar va o'qish yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilarining kontingenti shakllantiriladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o'tish reja-jadvali har yili 1-dekabrga qadar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi hamda oliy ta'lim muassasalariga yetkaziladi.

Tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari o'qish yo'nalishi va egallab turgan lavozimiga bog'liq holda tayanch oliy ta'lim muassasalari, Institut va boshqa ta'lim muassasalaridagi doimiy ishlaydigan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga yuboriladi.

(25-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

26. Kurslarga tinglovchilarni qabul qilish tasdiqlangan reja-jadval va jo'natuvchi tomonlarning buyrug'i asosida tegishli qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga tinglovchilarni qabul qilish to'g'risidagi buyruq kurslar boshlanishi sanasidan boshlab 3 kun mobaynida rasmiylashtiriladi.

27. Ishdan ajralmagan holda masofadan o'qitish usullari asosida tashkil etilgan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish jarayoni boshlangandan keyin uch kun mobaynida belgilangan topshiriqlarni bajarmagan yoki kurslarning to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladigan davrida o'qish boshlangandan keyin uch kun mobaynida tegishli qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlariga yetib kelmagan tinglovchilar, yetib kelmaslikning sabablaridan qat'iy nazar kurslarga qo'yilmaydi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga uzrsiz sabablar bo'yicha ishtirok etmagan taqdirda tinglovchilar attestatsiyadan o'tmagan deb hisoblanadi hamda ularga ushbu Nizomning [21-bandi](#) talablari tatbiq etiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalari rahbarlari tinglovchilarning qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga o'z vaqtida ishtirok etmaganligining barcha holatlari to'g'risida tegishli choralar ko'rish uchun jo'natuvchi tomonga va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga xabar beradi.

(27-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

Oldingi tahrirga qarang.

28. Tinglovchilarning kasalligi tasdiqlangan taqdirda ularning qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan hamda attestatsiyadan o'tish muddatlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,

fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq boshqa muddatga ko'chiriladi.

(28-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

29. O'qish tugallanadigan yilda oliy ta'lim muassasalariga pedagog lavozimlariga qabul qilingan magistratura bitiruvchilari pedagogik faoliyatning uchinchi yilida qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o'tadilar.

30. Reja-jadvalga kiritilgan va qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qishdan o'tadigan tinglovchilar uchun o'qishning to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish davrida ularning asosiy ish joyi bo'yicha egallagan lavozimi va o'rtacha ish haqi saqlanadi, ularning o'quv yuklamasi esa oliy ta'lim muassasasi kafedralarining boshqa a'zolari o'rtasida taqsimlanadi.

5-bob. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o'quv jarayonini tashkil etish

31. Uzluksiz malaka oshirish tizimi rahbar va pedagoglarga kasbiy faoliyat jarayonida erishilgan ko'rsatkichlar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalarida bevosita kasbiy rivojlanishni tashkil etishning maqbul va zarur yo'llarini tanlash, kasbiy bilim va ko'nikmalarni doimiy yangilash imkoniyatini beradi.

32. Tinglovchilarning o'quv jarayonini tashkil etish tegishli yo'nalishlar bo'yicha tasdiqlangan malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlar, mashg'ulotlar jadvali bilan tartibga solinadi. O'quv rejalari va dasturlar fan, texnika, texnologiyalar va ishlab chiqarishni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari asosida har yili takomillashtiriladi.

33. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'quv mashg'ulotlarining quyidagi asosiy turlari qo'llaniladi: ma'ruza (onlayn ma'ruza); interaktiv seminarlar; amaliy mashg'ulot; ko'chma mashg'ulot; tajriba almashish; mustaqil o'qish, shu jumladan masofadan o'qitish usullari; pedagogik (malakaviy) amaliyot; bitiruv (loyiha) ishini himoya qilish.

Tegishli axborot-metodik va tashkiliy-texnik baza mavjud bo'lgan taqdirda qayta tayyorlash va malaka oshirish o'quv kurslari masofadan o'qitish usullari qo'llanilgan holda tashkil etiladi.

Masofadan o'qitish usullari asosidagi kurslarda o'quv mashg'ulotlari onlayn va offlayn shakllarida o'tkaziladi.

34. Auditoriyada o'tkaziladigan barcha mashg'ulotlar turlari 80 daqiqa davom etadi, o'quv mashg'ulotlari oralig'idagi tanaffus kamida 10 daqiqani tashkil etadi.

35. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridagi o'quv jarayoni oliy ta'lim muassasalaridan taqdim etilgan yillik buyurtmanomalar bo'yicha guruhlarning to'ldirilishiga bog'liq holda tinglovchilar soni 15 nafardan kam bo'lmagan akademik guruhlarda tashkil etiladi.

Istisno tariqasida:

tinglovchilar kontingenti yetarli bo'lmagan yo'nalishlarda, jumladan rus yoki qoraqalpoq tilida dars olib boriladigan guruhlarda, tinglovchilar kontingenti bir guruh me'yorida yig'ilmaydigan kam sonli alohida ta'lim yo'nalishlarida o'quv jarayonini tashkillashtirishda bir guruhdagi tinglovchilar soni kamida 5 nafar etib belgilanishi mumkin;

Oldingi tahrirga qarang.

yil davomida 5 nafargacha pedagog kadrlar yig'ilmaydigan alohida ta'lim yo'nalishlarida malaka oshirish guruhi mavjud holatdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasasining buyrug'i bilan tinglovchilar soni 5 nafardan kam guruh shakllantirilishi yoki ular uchun malaka oshirish masofadan o'qitish usullari orqali amalga oshirilishi mumkin;

(35-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

Oldingi tahrirga qarang.

oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlari tarkibidagi uch yoshga to'lmagan yosh bolasi bo'lgan ayollar, pensiya yoshidagilar hamda nogironligi bo'lgan shaxslar oliy ta'lim muassasasi Kengashining tavsiyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishgan holda, masofadan o'qitish shakllari orqali amalga oshiriladigan malaka oshirish kurslarining reja-jadvaliga kiritiladi.

(35-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

36. Rahbar va pedagog kadrlarning pedagogik (malakaviy) amaliyoti oliy ta'lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan kafedralari, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha tashkilotlari bazasida tashkil etiladi.

37. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilarining o'zlashtirishi reyting baholash tizimi asosida nazorat qilinadi. Reyting ballini jamlashda:

rahbar va pedagog kadrlarning oxirgi 3 yillik kasbiy, o'quv-metodik va ilmiy-metodik faoliyati natijalari (elektron portfolioda qayd etilgan ko'rsatkichlari asosida);

kursni tamomlagandan keyingi onlayn test sinovlari natijalari;

bitiruv (loyiha) ishini himoya qilish natijalari hisobga olinadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Masofadan o'qitish usullari asosidagi kurslarda tinglovchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari onlayn shaklda qayd etib boriladi va kurslarni to'liq o'zlashtirgan tinglovchilarga bevosita qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalarida o'tkaziladigan onlayn test sinovlari hamda bitiruv (loyiha) ishi himoyasida onlayn ishtirok etishga ruxsat beriladi.

(37-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

Elektron portfolio ko'rsatkichlari va onlayn test sinovlari natijalari asosida tinglovchilarga bitiruv (loyiha) ishini himoya qilishga ruxsat beriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

38. To'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish davrida uzrsiz sabablar bilan 18 soat va undan ko'p miqdorda mashg'ulotlarga qatnashmaganligi uchun kurslarning tinglovchilari qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan tinglovchilar safidan chiqariladi va bu haqdagi axborot O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga, shuningdek tinglovchining asosiy ish joyiga yuboriladi.

(38-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

Mashg'ulotlarda qatnashmaganligi uchun kurslardan chetlashtirilgan tinglovchilar attestatsiyadan o'tmagan deb hisoblanadi hamda ushbu Nizomning 21-bandi tegishli talablari ularga nisbatan tatbiq etiladi.

Hujjat bilan tasdiqlangan uzrli sabablarga ko'ra 18 soat va undan ko'p hajmda mashg'ulotlarda qatnashmagan tinglovchilar safdan chiqariladi va ularga navbatdagi kurslarda ishtirok etishlariga ruxsat beriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

39. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida dars beradigan pedagoglar tarkibi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda Institutda muntazam ravishda qisqa muddatli malaka oshirish kurslaridan o'tadilar.

(39-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

40. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida mashg'ulotlar o'tkazish uchun oliy ta'lim muassasasining yetakchi pedagog kadrlari, doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha ilmiy kengash a'zolari, shuningdek shartnoma asosida mamlakatning boshqa oliy ta'lim muassasalarining yuqori malakali pedagog kadrlari, xorijiy mutaxassislar, o'quv-metodik xodimlari va amaliyotchi mutaxassislar jalb etiladi.

41. Attestatsiya komissiyalarining raislari qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida muntazam ravishda fan va texnikani rivojlantirishning tegishli yo'nalishlari bo'yicha muammoviy ma'ruzalar olib boradilar.

42. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida mehnatga soatbay haq to'lash shartlari bilan tinglovchilarni o'qitadigan pedagoglar tarkibining o'quv yuklamasi hajmi o'quv yili mobaynida belgilangan normativlar bo'yicha ular amalda bajaradigan o'quv ishlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

6-bob. Uzluksiz malaka oshirish jarayonlarida rahbar va pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish

43. Attestatsiya komissiyasi o'z qarorini rahbar va pedagog kadrlarning uzluksiz malaka oshirish tizimi bo'yicha elektron monitoring ko'rsatkichlari, shuningdek qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining natijalari asosida chiqaradi.

44. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilari quyidagi natijalar bo'yicha attestatsiyadan o'tkaziladi:

onlayn-test sinovlari natijalari;

pedagogik (malakaviy) amaliyot natijalari;

kasbiy faoliyat, shu jumladan elektron portfolio bo'yicha ko'rsatkichlar.

45. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilarining bitiruv (loyiha) ishini himoya qilish attestatsiya komissiyasida amalga oshiriladi.

46. Attestatsiya komissiyasining qarori qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi rahbarining o'qitish kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan tinglovchilarga belgilangan namunadagi malaka attestati berish to'g'risidagi buyrug'ini rasmiylashtirish uchun asos hisoblanadi.

47. Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalarining attestatsiya komissiyalari a'zolari mehnatiga haq to'lash attestatsiya komissiyasi tarkibida ishlarni bajarishning belgilangan normativlaridan kelib chiqqan holda mehnatga soatbay haq to'lash shartlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazishning yuqori sifat darajasini ta'minlash maqsadida attestatsiya komissiyalarining raislariga, ularga ilgari belgilangan boshqa qo'shimcha haq va ustamalardan qat'iy nazar, asosiy ish joyi bo'yicha mehnatga haq to'lash fondi doirasida lavozim maoshining (tarif setkasining) 30 foizi miqdorida ustama belgilanadi.

7-bob. Uzluksiz malaka oshirish jarayonlari tashkilotchilarining vazifalari

Oldingi tahrirga qarang.

48. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

(48-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

zamonaviy talablarga muvofiq o'z kasbiy darajasining doimiy o'sishida oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining manfaatdorligini oshirishni hisobga olgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qoidalarni amalga oshirishni tashkil etadi va nazoratini ta'minlaydi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi, ularning o'quv-metodik va moddiy-texnika bazasini yanada takomillashtirish choralarini ko'radi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni xorijiy tajribalar asosida doimiy takomillashtirish ishlarini tashkil etadi;

oliy ta'lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan kafedralarini tegishli yo'nalishlar bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalariga biriktiradi;

har yili attestatsiya komissiyalarining hisobotlarini eshitgan va zarur bo'lganda, ular tarkibiga o'zgartirishlar kiritgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining attestatsiya komissiyalari tarkibini shakllantiradi va tasdiqlaydi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida ta'lim jarayonini takomillashtirish mexanizmlari va uslublarini belgilaydi, tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni (masofadan o'qitish ta'lim usullarini tashkil etish va o'tkazish, tinglovchilarining bitiruv (loyiha) ishini tayyorlash va himoyaga taqdim etish, pedagogik (malakaviy) amaliyotni tashkil etish va o'tkazish tartiblarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining mehnatiga haq to'lash me'yorlarini) tasdiqlaydi hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlarining oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar klassifikatori bilan mutanosibligini ta'minlaydi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan, shuningdek masofadan o'qitish usullari orqali kurslardan o'tishi kerak bo'lgan tinglovchilarning prognoz qilinayotgan kontingentini belgilaydi;

oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining talab qilinadigan malakasini ta'minlash bo'yicha maqsadli topshiriqlarni tasdiqlaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

49. Institut:

(49-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

ta'lim dasturlarining uzluksizligi va ketma-ketligini hisobga olgan holda oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini o'qitish bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqadi;

umume'tirof etilgan xalqaro ta'lim standartlari va talablari, o'qitishning zamonaviy shakllari, ilg'or pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsiya texnologiyalari asosida o'qitishning modul tizimini qo'llagan holda oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlarining o'quv jarayonini tashkil etadi;

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli boshqarmalari va bo'limlarida, tayanch oliy ta'lim muassasalarida, davlat boshqaruv organlarida bitiruv (loyiha) ishlari tavsiyalarini amaliyotda tatbiq etilishini ta'minlaydi;

(49-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

tasdiqlangan reja-jadvalga asosan ishdan ajragan, shu jumladan masofaviy o'qitish uslublarini qo'llagan holda oliy ta'lim muassasalarining rahbar kadrlarini qayta tayyorlaydi va ularning malakasini oshiradi;

tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan tegishli yo'nalishlarning o'quv dasturiga mos holda ishlab chiqilgan o'quv-metodik resurslar asosida masofadan o'qitishning onlayn va offlayn shakllarida qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etadi;

oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini tayyorlash bo'yicha xorijiy tajribani va ta'lim muassasalarining e'tirof etilgan yutuqlarini tahlil qiladi va umumlashtiradi;

oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini, shuningdek qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayonining doimiy elektron monitoringini tashkil etadi;

uzluksiz malaka oshirish jarayonlarining elektron monitoring ko'rsatkichlari asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalarining istiqbol kontingentini shakllantiradi;

rahbar va pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish tizimidagi o'zlashtirish darajalariga mos ravishda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o'tishini nazorat qiladi va monitoringini olib boradi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o'quv jarayoni hamda rahbar va pedagog kadrlar kasbiy faoliyatining yagona elektron tizimlari monitoringining axborot resurslarini ro'yxatdan o'tkazish va shakllantirishda oliy ta'lim muassasalari, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro elektron aloqani ta'minlaydi;

barcha qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilarining onlayn-test, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillar bo'yicha sinovlarini tashkil etadi, shuningdek rahbar va pedagog kadrlarning elektron portfoliosida tegishli natijalarning ro'yxatdan o'tkazilishini muvofiqlashtiradi;

kurslar tugallangandan keyin qayta tayyorlash va malaka oshirishning tegishli yo'nalishlari bo'yicha onlayn-test sinovlarining natijalarini elektron tizimda ro'yxatdan o'tkazgan, keyinchalik kurslarni tugallashdan oldin attestatsiya komissiyalariga test sinovlari natijalarini taqdim etgan holda tashkil etadi;

joylarda rahbar va pedagog kadrlar tomonidan yagona elektron monitoring tizimiga kiritilgan ma'lumotlarning ishonchligini o'rganishni tashkil etadi.

50. Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalari:

qayta tayyorlash va malaka oshirishning tegishli yo'nalishlari bo'yicha doimiy faoliyat ko'rsatadigan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etadi;

kurslar doirasida sifat jihatidan yuqori tashkiliy va kasbiy darajada mashg'ulotlar o'tkazish uchun zarur o'quv, uslubiy va moddiy-texnika bazasini tashkil etadi;

masofadan o'qitish usullari asosida oliy ta'lim pedagog kadrlari uchun tashkil etiladigan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining tegishli o'quv-metodik resurslarini ishlab chiqadi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida mashg'ulotlar o'tkazish uchun oliy ta'lim muassasalarining yetakchi pedagog kadrlarini va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha ilmiy kengash a'zolarini, shuningdek shartnoma asosida mamlakatning boshqa oliy ta'lim muassasalarining yuqori malakali pedagog kadrlarini va xorijiy mutaxassislarni, o'quv-uslubiy xodimlar va amaliyotchi mutaxassislarni keng jalb etishni ta'minlaydi;

qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha zarur axborot-ma'lumotlar bazasini shakllantiradi, qayta tayyorlash jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqishni va ularni joriy etishni tashkil etadi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qiyotganlar uchun pedagogik amaliyot hamda ular tomonidan ochiq leksiya va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishni, keyinchalik muhokama qilgan va tanqidiy tahlil qilgan holda, tashkil etadi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish davrida kurslarning boshqa joylardan kelgan tinglovchilariga oliy ta'lim muassasalari yotoqxonalaridan yashash joylari berish choralarini ko'radi;

Oldingi tahrirga qarang.

ma'lumotlarning xolisligini ta'minlagan holda Institut yagona elektron tizimining tegishli axborot resurslarini shakllantirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etadi.

(50-bandning to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

51. Oliy ta'lim muassasalari:

Oldingi tahrirga qarang.

har o'quv yilida mustaqil ravishda malaka oshirish shakllari bo'yicha faoliyat olib borayotgan rahbar va pedagog kadrlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Institutning elektron portfolio tizimiga kiritilishini ta'minlaydi hamda mustaqil malaka oshirish natijalariga ko'ra rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish shakllarining prognoz ko'rsatkichlarini belgilaydi;

(51-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalarida rahbar va pedagog kadrlarni tayyorlashning talab qilinadigan sifatini ta'minlash bo'yicha maqsadli vazifalarni tasdiqlaydi;

pedagog kadrlarning qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o'tish davrida ularning o'quv yuklamalarini oldindan qayta taqsimlashni ta'minlaydi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining tasdiqlangan jadvali asosida o'z rahbar va pedagog kadrlarining tegishli kurslarga belgilangan muddatlarda o'z vaqtida kelishlarini ta'minlaydi;

oliy ta'lim muassasalarining kengashlari majlislarida qayta tayyorlash va malaka oshirish natijalarini muhokama qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etadi;

kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining ilg'or tajribasini, yangi bilimlari va ko'nikmalarini ommalashtirishni tashkil qiladi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o'tgan shaxslarning kasbiy faoliyati bo'yicha doimiy monitoringni tashkil etadi;

Oldingi tahrirga qarang.

har o'quv yilida Institutning yagona elektron tizimiga oliy ta'lim muassasalari uchun maxsus ajratilgan sahifaga rahbar va pedagoglar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilishini ta'minlaydi, shuningdek tegishli o'qituvchilar ma'lumotlarining to'g'ri kiritilganligi yuzasidan monitoring olib boradi;

(51-bandning to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

elektron portfolio tizimi ko'rsatkichlari bo'yicha rahbar va pedagog kadrlarning faoliyatini tizimli tahlil etib boradi va o'quv yili yakunlari bo'yicha ularning reytingini aniqlashda tegishli ko'rsatkichlarini inobatga oladi;

rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish natijalarining ichki monitoringini olib boradi, yuqori ko'rsatkichlarga erishgan oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, shuningdek pedagog lavozimlarini egallash yuzasidan tanlovlar o'tkazish jarayonida ularni asosiy mezonlar sifatida hisobga oladi.

52. Oliy ta'lim muassasasi rahbar va pedagog kadrlari:

shaxsiy ish rejasida o'quv yili uchun uzluksiz malaka oshirish shakllari bo'yicha faoliyatini rejalashtiradi;

kasbiy faoliyat natijalarini elektron portfolio tizimiga joylashtiradi.

Bunda, rahbar va pedagog kadrlar kasbiy faoliyat natijalarining tasdiqlovchi hujjatlarini elektron portfolio tizimiga quyidagi tartibda kiritib boradilar:

ochiq o'quv mashg'ulotlari va mahorat darslarini tashkil etganligi to'g'risida ta'lim muassasasi kafedrasini yoki ilmiy-metodik kengashi yig'ilishidagi muhokamasining o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

dars berayotgan fanlari bo'yicha talabalarning respublika va xalqaro miqyosidagi fan olimpiadalari, sport musobaqalari, san'at sohasidagi ko'rik tanlovlar va ko'rgazmalardagi ishtirokini tasdiqlovchi hujjatning nusxasi (buyruqdan ko'chirma, diplom, faxriy yorliq);

ilmiy konferensiyalar to'plamida nashr qilingan ishlarning tasdiqlangan nusxasi;

ilmiy jurnallarda nashr qilingan ishlarning tasdiqlangan nusxasi;

ko'rik tanlovlar va ko'rgazmalardagi ishtirokini tasdiqlovchi hujjatning nusxasi (buyruqdan ko'chirma, diplom, faxriy yorliq);

ilmiy loyihalarda ishtirok etishni qayd etishda loyihaning nomi va qayd raqami, loyihani amalga oshirishdagi roli (rahbar yoki ijrochi), amalga oshirilish muddatlari haqidagi ma'lumotlarning ilmiy ishlar va innovatsion faoliyat bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

impakt-faktorli nashrlarda chop etilgan ishlarning tasdiqlangan nusxasi, ixtiro, ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalar, mualliflik ijodiy ishlarini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi;

olib borayotgan ilmiy, ijodiy izlanishlari asosida monografiya, ijodiy ishlar katalogining chop etilganligini tasdiqlovchi Oliy ta'lim muassasasining Kengashi bayonnomasidan ko'chirma va monografiya, katalog muqovasining nusxasi;

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi unvoni nusxasi;

xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish yoki stajirovka o'taganligini tasdiqlovchi hujjat nusxasi;

doktorlik dissertatsiyasining (PhD, DSc) himoya qilinganligini qayd etish uchun Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan berilgan diplomning nusxasi;

ilmiy rahbarligida falsafa doktori (PhD) yoki fan doktorligi (DSc) dissertatsiyasining himoya qilganligini tasdiqlovchi hujjat;

darslik yoki o'quv qo'llanma uchun berilgan guvohnomaning nusxasi.

53. Elektron portfolio tizimiga kiritilgan barcha ma'lumotlarning haqqoniyligiga rahbar va pedagog kadrlar shaxsan mas'ul hisoblanadilar.

Elektron portfolio tizimidagi ko'rsatkichlarning haqqoniy emasligi tasdiqlanganda tegishli rahbar va pedagog kadrlarning elektron portfolio natijalari bekor qilinadi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

Oldingi tahrirga qarang.

54. Ushbu Nizomni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

(54-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

55. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

(55-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibi to'g'risida
nizomga
1-ILOVA

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining uzluksiz malaka oshirish tizimi SXEMASI

II. Muzokabil malaqa oshirish											10	Эл 86- ек 10 тр 0 он ба по лл рт фо лл о 20- ти ба зи лл ми кў рс ат ки чл ар и	Малака аттестати
	Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий академияси академиги илмий унвонига эга бўлиш Фалсафа доктори (PhD) ёки фан доктори (DSc) диссертациясини химоя қилиш												
I. Mutaxassislik бўйича mustaqil malaqa oshirish	Хорижий мамлакатларда малака oshiрish, стажировка ўташ										10	Битирув (лойиҳа) иш химояси (аттестация) Онлайн тест синовлари Таълим дастурлари асосида қайта тайёрлаш ва малака ошириш таълим ташкilotларида бевосита ўқиш	
	Хорижий мамлакатларда қисқа муддатли малака ошириш, стажировка ўташ										10		
	Илмий раҳбарлигида (DSc, PhD) диссертация химояси										10		
	Ўқув адабиётларини тайёрлаш										10		
	Монография, илмий ишлар каталогини тайёрлаш										10		
	Халқаро (импакт-факторли) нашрларда мақолалар эълон қилиш										10		
	Ихтиро, рационализаторлик тақлифлари, инновацион ишланмалари муаллифи										10		
	Илмий лойиҳаларда иштирок этиш										10		
	Кўргазма ва танловларда иштирок этиш										8		
	Илмий журналларда мақолалар чоп этиш										8		
	Илмий конференцияларда маъруза билан қатнашиш										6		
	Иқтидорли талабалар билан ишлаш										4		
	Очiq ўқув машгулот ва маҳорат дарси ташкил этиш										4		
Узлуksиз малака ошириш шакллари											Балл	Тўплаган баллига мос фаолiaт йўналиши	

(1-ilovaning matni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibi to'g'risida
nizomga
2-ILOVA

Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malaka oshirish shakllarini BAHOLASH MEZONLARI

T/r	Mustaqil malaka oshirish shakllari	Faoliyatni baholash mezonlari	Ball
	I. Mutaxassislik bo'yicha mustaqil malaka oshirish		100


1.	Ochiq o'quv mashg'ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish.	<p><i>Har o'quv yilida kamida 2 ta sohaga oid "mahorat saboqlari" tashkil etish —</i></p> <p><i>Har o'quv yilida kamida 2 ta ochiq o'quv mashg'ulotlari —</i></p>	<p>4</p> <p>2</p> <p>1</p>
2.	Iqtidorli va iste'dodli talabalar bilan ishlash.	<p><i>Talabalarining respublika va xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalari, sport musobaqalari, san'at sohasidagi ko'rik tanlovlar va ko'rgazmalardagi sovrinli o'rin uchun:</i></p> <p><i>xalqaro miqyosda —</i></p> <p><i>respublika miqyosida —</i></p>	<p>4</p> <p>4</p> <p>2</p>
3.	Ilmiy konferensiyalarda ma'ruza bilan qatnashish.	<p><i>Xalqaro miqyosda —</i></p> <p><i>Respublika miqyosida —</i></p>	<p>6</p> <p>2</p> <p>1</p>
4.	Ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish.	<p><i>Har bir ilmiy maqola uchun —</i></p>	<p>8</p> <p>2</p>
5.	Ko'rgazma va tanlovlarda ishtirok etish.	<p><i>Xalqaro miqyosda —</i></p> <p><i>Respublika miqyosida —</i></p>	<p>8</p> <p>8</p> <p>4</p>
6.	Ilmiy loyihalarda ishtirok etish.	<p><i>Xalqaro loyihalar —</i></p> <p><i>Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi loyihalar:</i></p> <p><i>loyiha rahbari sifatida —</i></p> <p><i>loyiha ishtirokchisi sifatida —</i></p> <p><i>Xo'jalik shartnomasi asosida bajariladigan ishlar:</i></p> <p><i>rahbar sifatida —</i></p> <p><i>ishtirokchi sifatida —</i></p> <p><i>Davlat buyurtmasi asosida yaratilgan ijodiy ishlar:</i></p> <p><i>yakka muallif sifatida —</i></p> <p><i>hammuallif sifatida —</i></p>	<p>10</p> <p>8</p> <p>8</p> <p>4</p> <p>4</p> <p>2</p> <p>4</p> <p>2</p>
7.	Xalqaro (impakt-faktorli) nashrlarda maqolalar e'lon qilish.	<p><i>Xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan yuqori reytingli ilmiy jurnallar yoki "impakt-faktor"ga ega bo'lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan har bir maqola uchun —</i></p>	<p>10</p> <p>5</p>
8.	Ixtiro (patent), ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalarga mualliflik qilish.	<p><i>Ixtiro (patent) —</i></p> <p><i>Ratsionalizatorlik taklifi —</i></p> <p><i>Innovatsion ishlanmalarga mualliflik —</i></p>	<p>10</p> <p>10</p> <p>6</p> <p>4</p>

9.	Monografiya, mualliflik ijodiy ishlar katalogini tayyorlash va nashr qilish.	Yakka mualliflikda — Hammualiflikda —	10 10 5
10.	O'quv adabiyotlari (darslik, o'quv qo'llanma, metodik qo'llanma) tayyorlash va nashr qilish.	Yakka mualliflikda: darslik — o'quv qo'llanmasi — Hammualiflikda: darslik — o'quv qo'llanmasi — Metodik qo'llanma: yakka mualliflikda — hammualiflikda —	10 10 7 7 5 3 1
11.	Fan doktori (DSc) yoki falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun himoya qilingan dissertatsiyaga ilmiy rahbarlik qilish.	Oxirgi 3 yilda himoya qilingan dissertatsiyaga —	10 10
12.	Oxirgi 3 yilda xorijiy mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri shaklda malaka oshirish, stajirovka o'tash	Oxirgi 3 yilda ikki haftadan — to'rt haftagacha — Oxirgi 3 yilda ikki haftagacha —	10 10 5
II. Muqobil malaka oshirish shakllari			
13.	O'zbekiston Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi ilmiy unvoniga ega bo'lish.		
14.	Oxirgi 3 yilda doktorlik (PhD, DSc) dissertatsiyasini himoya qilish.		
15.	Oxirgi 3 yilda xorijiy mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri shaklda umumiy davomiyligi 4 hafta yoki 144 soatdan kam bo'lmagan malaka oshirish yoki stajirovka o'tash.		

(2-ilovaning matni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)


Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibi to'g'risida
nizomga
3-ILOVA

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish BOSQICHLARI



Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son qaroriga 2-ILOVA

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazining NAMUNAVIY TUZILMASI



Oldingi tahrirga qarang.

Izoh: O'quv-yordamchi xodimlar, shuningdek texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlari soni qonunchilik hujjatlarida oliy ta'lim muassasalari uchun belgilangan normativlar bo'yicha aniqlanadi.

(izohning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Xodimlarning umumiy cheklangan soni (professor-o'qituvchilar tarkibi va yordamchi xodimlardan tashqari) — 7 nafar, shu jumladan boshqaruv xodimlari — 5 nafar.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son qaroriga 2a-ILOVA

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazining NAMUNAVIY TUZILMASI*



*Izoh: * Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi tuzilmasi alohida tasdiqlanadi*

Xodimlarning umumiy cheklangan soni (professor-o'qituvchilar tarkibi va yordamchi xodimlardan tashqari) — 8 nafar, shu jumladan boshqaruv xodimlari — 6 nafar.

Oldingi tahrirga qarang.

O'quv-yordamchi xodimlar, shuningdek texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlari soni qonunchilik hujjatlarida oliy ta'lim muassasalari uchun belgilangan normativlar bo'yicha aniqlanadi.

(izohning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(3-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrda PQ-420-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.12.2024-y., 07/24/420/1009-son)

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son qaroriga
4-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida samarali dars berayotgan professor-o'qituvchilar, tajribali amaliyotchi mutaxassislarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida

NIZOM

(4-ilovaning nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

1-bob. Umumiy qoida

Oldingi tahrirga qarang.

1. Mazkur Nizom oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida samarali dars berayotgan professor-o'qituvchilar, tajribali amaliyotchi mutaxassislarni (keyingi o'rinlarda markaz pedagoglari deb ataladi) rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

(1-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

Oldingi tahrirga qarang.

2-bob. Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi pedagoglarining o'quv yili davomidagi faoliyati tahlili

(2-bobning nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

Oldingi tahrirga qarang.

2. Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi pedagoglarining o'quv yili davomidagi faoliyati tahlili quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

(2-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

o'quv-metodik faoliyat;

ilmiy-tadqiqot faoliyati.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

3. Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi pedagoglari faoliyatini baholash uchun 5 — 7 kishidan iborat maxsus Ishchi guruh har yili 15-yanvarga qadar shakllantiriladi. Ishchi guruh tarkibi tegishli oliy ta'lim muassasasi rektori (Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori) buyrug'i bilan tasdiqlanadi va unga mazkur ta'lim muassasasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori, markaz direktori, ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimlari, kafedra mudirlari hamda tajribali pedagog xodimlari kiritiladi. Ishchi guruh faoliyati yil davomida amalga oshiriladi.

(3-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Ishchi guruhga oliy ta'lim muassasasi rektori (Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori) rahbarlik qiladi.

(3-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi pedagoglarining o'quv yili davomidagi faoliyati Ishchi guruh tomonidan mazkur Nizomning [ilovasida](#) keltirilgan mezonlarga muvofiq ko'rib chiqiladi va baholanadi.

(3-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

Ushbu Nizomning [ilovasida](#) keltirilgan mezonlarni aks ettiruvchi hujjatlar va materiallarni to'plash majburiyati pedagog kadrlarning zimmasiga yuklatiladi.

Pedagog kadrlar tomonidan asoslovchi hujjatlar va materiallar Ishchi guruhga yil yakunlari bo'yicha taqdim etiladi.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

4. Baholash natijalari asosida Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi pedagoglariga to'plagan reyting ballaridan kelib chiqqan holda rag'batlantirish foizlari belgilanadi va har yili 15-noyabrga qadar Ishchi guruh bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

(4-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

Ishchi guruh bayonnomasi a'zolarining kamida 2/3 qismi tomonidan qo'llab-quvvatlanganidan so'ng tasdiqlanadi.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

5. Ishchi guruhning bayonnomasi asosida har yili 25-noyabrga qadar Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi pedagoglarini rag'batlantirish to'g'risidagi Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi direktorining buyrug'i qabul qilinadi.

(5-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

3-bob. Markaz pedagoglarini moddiy rag'batlantirish tartibi

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

6. Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi pedagoglarining faoliyati tahlilidan kelib chiqib, ularni bazaviy lavozim maoshining 30 foizigacha oylik ustamalar belgilash asosida hamda mashg'ulotlar o'tkazish uchun soatbay ish haqi to'lash shartlari bilan jalb etiladigan malakali pedagog kadrlarga soatbay haq to'lash miqdorining 20 foizigacha ko'paytirilgan holda moddiy rag'batlantirish amalga oshiriladi.

Bunda, mehnatga soatbay haq to'lash shartlarida o'quv mashg'ulotlari olib boruvchi Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi pedagoglarini moddiy rag'batlantirish Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2015-yil 20-avgustdagi 242-son [qaroriga](#) muvofiq 25 foizga oshirilgan soatbay haq to'lash miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

(6-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

7. Pedagoglar mehnatining amaldagi natijasi va sifatini hisobga olgan holda ularni rag'batlantirishga tavsiya etish tabaqalashtirilgan holda quyidagicha amalga oshiriladi:

a) shtatdagi pedagoglar:

55 — 70 ball uchun — 10 foiz;

71 — 85 ball uchun — 20 foiz;

86 — 100 ball uchun — 30 foiz;

b) soatbay asosida dars beradigan pedagoglar:

55 — 70 ball uchun — 10 foiz;

71 — 85 ball uchun — 15 foiz;

86 — 100 ball uchun — 20 foiz.

8. Moddiy rag'batlantirish to'lovi navbatdagi kalendar yilining boshidan (yanvar oyidan) bir yil davomida har oyda amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

9. Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi pedagoglarini moddiy rag'batlantirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi hamda ularga nisbatan qonunchilikda belgilangan boshqa ustamalarni belgilanishiga to'sqinlik qilmaydi.

(9-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

4-bob. Yakuniy qoidalar

Oldingi tahrirga qarang.

10. Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasasi pedagoglarining yil davomida mazkur Nizomning **ilovasida** keltirilgan baholash mezonlari bo'yicha to'plagan umumiy bali 55 dan kam bo'lgan taqdirda rag'batlantirish kelgusi kalendar yil uchun bekor qilinadi.

(10-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

Oldingi tahrirga qarang.

11. Ushbu Nizomni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

(11-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Oldingi tahrirga qarang.

12. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

(12-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarida samarali dars berayotgan professor-o'qituvchilar, tajribali amaliyotchi mutaxassislarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida
nizomga
ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim muassasalarida dars berayotgan professor-o'qituvchilar, amaliyotchi mutaxassislar faoliyatini

BAHOLASH MEZONLARI

(ilovaning nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son)

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Ko'rsatkichlar	Ajratilgan maksimal ball
I. O'quv-metodik faoliyat (65 ball)		
1.	Nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni va o'qitiladigan fanning zamonaviy tendensiyalarini egallaganlik darajasi (ochiq mashg'ulotlar natijalari bo'yicha)	7 ball
2.	O'qitish sifati darajasi (markaz tomonidan tinglovchilar bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari bo'yicha)	8 ball
3.	Yil mobaynida qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi uchun nashr etilgan kamida bitta o'quv qo'llanmasining mavjudligi	10 ball (ball hammualliflar soniga teng bo'linadi)
4.	O'qitishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi, o'quv kursini va o'quv-taqdimot materiallarini ishlab chiqishi	5 ball
5.	O'quv jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalari va tinglovchilar bilimlarini baholashning ilg'or usullari qo'llanilishi darajasi	5 ball
6.	Dars beradigan moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmuani ishlab chiqqanligi yoki yangilaganligi	5 ball (ball hammualliflar soniga teng bo'linadi)
7.	Xorijiy tillardan (rus tili qamrab olinmaydi) birini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi va buni tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarining mavjudligi (IELTS (o'rtacha 5,5 balldan kam bo'lmagan), TOEFL (RVT) (567 balldan kam bo'lmagan), TOEFL (iBT) (87 balldan kam bo'lmagan), V2 darajasidagi CEFR (Common European Framework of Reference), Test DaF (Test Deutsch als Fremdsprache fur auslandische Studienbewerber) yoki GOETNE-ZERTIFIKAT, DALF (Diplome approfondi de langue francaise) yohud Davlat test markazining malakaviy sertifikati)	10 ball
8.	Xorijiy tillarda (rus tili qamrab olinmaydi) materiallarni ishlab chiqish va fanni o'qitishda ulardan amalda foydalanish	5 ball
9.	So'nggi uch yilda xorijiy ta'lim va ilmiy muassasalarida malaka oshirish yoki stajirovkadan o'tganligi	10 ball
II. Ilmiy-tadqiqot faoliyati (35 ball)		
10.	Ilmiy daraja va ilmiy unvon	5 ball
11.	Yil mobaynida kamida ikkita ilmiy konferensiyalarda qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimiga oid ma'ruza bilan ishtirok etishi	4 ball
12.	Yil mobaynida ilmiy nashrlarda qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimiga oid kamida bitta maqola chop etishi: - respublika miqyosida - xalqaro miqyosda	5 ball 8 ball (ball hammualliflar soniga teng bo'linadi)

13.	Davlat ilmiy dasturlari yoki xalqaro ilmiy loyihalardagi ishtiroki (kamida bitta): - rahbarlik qilish - ishtirok etish	5 ball 3 ball
14.	Patentlar, ixtirolar va elektron dasturlar uchun kamida bitta mualliflik guvohnomalarining mavjudligi	5 ball (ball hammualliflar soniga teng bo'linadi)
JAMI (maksimal ball — 100)		

(ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 545-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-son)

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son qaroriga
5-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha

1. Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 26-sentabrdagi 278-son qarorida (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2012-y., 39-son, 453-modda):

- a) 1-bandning uchinchi xatboshisidagi "16" raqami "17" raqami bilan almashtirilsin;
b) 1-ilovada:

"Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazlari" bo'limi "Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari" ustunining 4-pozitsiyasidan "zootexniya" va "veterinariya" so'zlari chiqarib tashlansin;

quyidagi mazmundagi 17-pozitsiya qo'shilsin:

17.	Samarqand veterinariya meditsinasi instituti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi	Zooinjeneriya, Veterinariya meditsinasi	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi
-----	---	---	--

- v) 4 va 5-ilovalar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

g) "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazlari" bo'limi "Vazirliklar va idoralarga mansubligi" ustuni:


4 pozitsiyasidagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi" so'zi "Qishloq xo'jaligi vazirligi" so'ziga almashtirilsin;

10-pozitsiyasidagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi" so'zi "Qurilish vazirligi" so'ziga almashtirilsin.

- d) 2-ilovaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimining

TASHKILIY TUZILMASI



* O'zMU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi tarmoq va mintaqaviy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi".

2. Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2015-yil 20-avgustdagi 242-son qarorida (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2015-y., 33-son, 442-modda):

- 1-bandning ikkinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;
- 3-bandning ikkinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;
- 1-ilova o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

Oldingi tahrirga qarang.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.03.2025-y., 09/25/171/0258-son)

4. Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" 2017-yil 27-fevraldagi 103-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2017-y., 9-son, 129-modda) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2019-y., 09/19/797/3793-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.06.2021-y., 09/21/345/0522-son; 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-son; 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son; 12.07.2024-y., 09/24/415/0501-son; 06.12.2024-y., 07/24/420/1009-son; 19.03.2025-y., 09/25/171/0258-son)



Tezkor va qulay
onlayn mikroqarz

100 mln

Kredit foizi: 26%-30% gacha
Kredit muddati: 2-48 oygacha

